



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

70110701 – O'zbek tili va adabiyoti
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70110701 – O'zbek tili va adabiyoti

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: NASRULLAYEV JAVOHIRXON RAVSHANOXOVICH

Samarqand davlat chet tillar instituti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: MICHELLE BEDEKER

Yangi O'zbekiston universiteti

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260026
Xulosa raqami	614
Xulosa sanasi	11.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Guvohnoma: MAS № 0000008, 06.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	O'zbek tili va adabiyoti
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70110701
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000008, 06.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70110701 – O'zbek tili va adabiyoti
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70110701 – Uzbek Language and Literature
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70110701 – Узбекский язык и литература
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Filolog, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	16 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv asoslari hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgan. Dasturga mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolatlari va funksiyalari aniq belgilangan bo'lib, istiqbolli rivojlantirish rejasi hamda sifat monitoringi mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. O'zbek tili va adabiyoti magistratura yo'nalishi uchun ilmiy-tadqiqot va pedagogik salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv modeli alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda milliy til va adabiyot bo'yicha ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, zamonaviy filologik yondashuvlarni qo'llash hamda yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash ta'lim sifatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Manfaatdor tomonlar ishtiroki hamda sifat monitoringi jarayonlarini yanada tizimli hujjatlashtirish ta'lim dasturining uzluksiz takomillashtirilishiga xizmat qiladi. Demak, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular magistratura ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur institutsional asos yaratadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim dasturi mazmunining asosiligi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq shakllantirilgan. O'zbek tili va adabiyoti magistratura yo'nalishi uchun nazariy-filologik bilimlarni ilmiy-tahliliy yondashuv, adabiy-tanqidiy tafakkur hamda mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirish alohida

ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda ilmiy kompetensiyalar til va adabiyot hodisalarini chuqur tahlil qilish hamda zamonaviy filologik tadqiqot usullarini qo'llash orqali shakllanadi. Fanlarning mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilgani magistrantlarning ilmiy va kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, ta'lim dasturi mazmuni milliy ta'lim standartlari talablariga muvofiq, nazariy tayyorgarlik hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati uyg'unligida tizimli shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim dasturida o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. O'quv jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari, fan dasturlarini shakllantirish hamda baholash tizimi amaldagi me'yoriy talablar asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan muvofiqlashtirilgan. O'zbek tili va adabiyoti magistratura yo'nalishi uchun ilmiy-tadqiqot faoliyati, seminar-tahliliy mashg'ulotlar hamda filologik tadqiqot metodlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda ilmiy kompetensiyalar til va adabiyot hodisalarini chuqur tahlil qilish hamda mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish orqali shakllanadi. Baholash tizimining shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi ta'lim jarayonining xolisligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Demak, o'quv jarayoni va baholash tizimi amaldagi standartlar talablariga muvofiq, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'langan hamda natijaga yo'naltirilgan holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim dasturida talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Talabalarni qabul qilish, qabul natijalarini e'lon qilish, shikoyat va apellyatsiya jarayonlarini tashkil etish bo'yicha zarur tashkiliy hamda me'yoriy mexanizmlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgan. Qabul mezonlari va tartiblari aniq belgilangan bo'lib, ular abituriyentlarga ochiq va shaffof tarzda yetkaziladi. Qabul parametrlarining universitetning mavjud imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilgani hamda magistrantlarni akademik va ilmiy faoliyatda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi sifatli ta'lim va ilmiy-tadqiqot muhitini ta'minlaydi.

O'zbek tili va adabiyoti magistratura yo'nalishi uchun ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy rahbarlik tizimi va akademik maslahatlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular magistrantlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil tadqiqot olib borish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi normativ talablar asosida samarali tashkil etilgan bo'lib, magistrantlarning akademik va ilmiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim dasturida inson resurslari salohiyati tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgan bo'lib, ularning ilmiy va kasbiy salohiyati magistratura dasturini sifatli amalga oshirish imkonini beradi. O'zbek tili va adabiyoti magistratura yo'nalishi uchun professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, filologik tadqiqotlar olib borish tajribasi hamda zamonaviy adabiyotshunoslik va tilshunoslik yondashuvlarini qo'llash ko'nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda ilmiy kompetensiyalar mustaqil tadqiqot olib borish va ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish orqali shakllanadi. Kadrlar tarkibining mutaxassislik profiliga mosligi ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi magistratura dasturining ilmiy komponentini mustahkamlashga hamda inson resurslari salohiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, inson resurslari tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular magistratura ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish hamda ilmiy va kasbiy salohiyatni izchil rivojlantirish uchun yetarli asos yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim dasturining moddiy-texnik ta'minoti tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv auditoriyalari hamda axborot-resurs markazi shakllantirilgan bo'lib, ular o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. O'zbek tili va adabiyoti magistratura yo'nalishi uchun boy kutubxona fondi, ilmiy adabiyotlar, qo'lyozmalar, elektron ma'lumotlar bazalari hamda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki magistrantlarning

ilmiy izlanishlari, filologik tahlillari va tadqiqot faoliyati bevosita mazkur resurslarga tayanadi. Axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlaydi. Demak, moddiy-texnik ta'minot tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular magistratura ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish hamda ilmiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun yetarli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish maqsadga muvofiq.
- ✓ Kutubxona fondi, ilmiy manbalar va raqamli ta'lim resurslarini boyitish tavsiya etiladi.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Kutubxona fondi, ilmiy manbalar va raqamli resurslarni boyitish.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash.
- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik mobillikni kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Farg'ona davlat universitetining 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, Davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq shakllantirilgan o'quv dasturi, malakali professor-o'qituvchilar tarkibi hamda zamonaviy moddiy-texnik va axborot-resurs bazasi mavjudligini ko'rsatdi. Ta'lim

dasturining nazariy-filologik tayyorgarlikni ilmiy-tadqiqot faoliyati, tahliliy yondashuv va zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirgani magistrantlarning ilmiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratadi. Baholash davomida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq deb topildi. Shu asosda ekspert komissiyasi tomonidan 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

